

**YANGI O'ZBEKISTON: TARAQQIYOT, TINCHLIK VA INSON  
QADRIYATLARI UYG'UNLIGI****Alijonov Baxtiyorov Xoshimovich***FarDU Harbiy ta'lif fakulteti o'qituvchisi***Yo'ldoshov Mustafo Parxod o'g'li***FarDU Harbiy ta'lif fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonning barqaror taraqqiyoti, tinchlik va inson qadriyatlari uyg'unligi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Davlat rivojlanishida ijtimoiy barqarorlik va milliy o'zlikning o'rni o'rganiladi. Tadqiqot sotsiologik, falsafiy va siyosiy fanlar kesishmasida olib borilib, tinchlik, taraqqiyot va inson qadr-qimmati o'zaro bog'liq ekanligi asoslanadi.*

**Kalit so'zlar:** *Yangi O'zbekiston, taraqqiyot, tinchlik, inson qadriyatlari, barqarorlik, ijtimoiy uyg'unlik.*

**KIRISH**

"Yangi O'zbekiston" tushunchasi chuqur islohotlar orqali barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishish, demokratik institutlarni mustahkamlash va inson qadr-qimmatini birinchi o'ringa qo'yishga asoslangan. So'nggi yillarda mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar O'zbekistonni tubdan yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqmoqda. Ushbu islohotlar siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga ta'sir ko'rsatib, jamiyatda adolat, qonun ustuvorligi va inson huquqlarini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston yangi rivojlanish strategiyasini qabul qilgan bo'lib, u xalq manfaatlarini ustuvor qo'yish, iqtisodiy o'sishning innovatsion omillarini ishga solish, tashqi siyosatda ochiqlik tamoyillariga asoslanish kabi tamoyillarni o'z ichiga oladi. "Yangi O'zbekiston" atamasi esa aynan shunday islohotlarning natijasi sifatida vujudga kelgan bo'lib, jamiyatning barcha qatlamlari uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

Davlat taraqqiyotining asosiy ustunlari tinchlik va barqarorlik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular barqaror iqtisodiy o'sish va ijtimoiy farovonlik uchun mustahkam zamin yaratadi. Shuning uchun, Yangi O'zbekiston konsepsiysi milliy manfaatlar va inson qadriyatlarini uyg'unlashtirish orqali zamonaviy taraqqiyot modelini shakllantirishga qaratilgan. Ushbu maqola tinchlik, barqarorlik va inson qadriyatlarining O'zbekiston taraqqiyotidagi o'rmini chuqurroq o'rganishga bag'ishlangan.

Yangi O'zbekiston konsepsiyasining shakllanishi va rivojlanishi yuzasidan bir qator ilmiy maqolalar, hukumat hisobotlari va xalqaro tadqiqotlar tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko'rsatmoqda:

Tinchlik va inson qadriyatlari uyg'unligi

Tinchlik va inson qadriyatlari bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lib, barqaror taraqqiyotning muhim sharti hisoblanadi. Tadqiqotchilar G'. Axmedov va D. Safarov o'z ilmiy ishlarida tinchlikning jamiyatda ijtimoiy uyg'unlik va madaniy rivojlanish uchun asosiy omil ekanligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, inson qadriyatlari va huquqlariga asoslangan tinchlik siyosati davlatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, N. Usmonovning tadqiqotlarida tinchlik faqat qurolli mojarolarning yo'qligi emas, balki ijtimoiyadolat va iqtisodiy farovonlik orqali ta'minlanishi kerakligi urg'ulangan. U tinchlikni jamiyatda o'zaro ishonch va hamkorlikni shakllantirish vositasi sifatida ko'rib, inson qadriyatlarini mustahkamlash orqali ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash mumkinligini qayd etadi.

### Madaniyat va taraqqiyot o'zaro bog'liqligi

Milliy o'zlik va madaniy merosni mustahkamlash ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlab, tinchlik va barqaror rivojlanish jarayonlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Madaniyatning rivoji nafaqat ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga, balki milliy g'ururni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

### Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash

O'zbekistonda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotchi A. Karimovning "Yoshlar va vatanparvarlik tarbiyasi" nomli ilmiy ishida ta'kidlanishicha, milliy qadriyatlar va tarixiy ongni shakllantirish yoshlarning ma'naviy barkamolligini ta'minlaydi. Shuningdek, B. Mamatov o'z tadqiqotlarida vatanparvarlik ruhidagi ta'lim tizimi orqali yoshlarni jamiyatga faol integratsiya qilishning ahamiyatini urg'ulagan.

### Yangi O'zbekiston Qurolli Kuchlari tizimidagi islohotlar

So'nggi yillarda mamlakat mudofaa tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha Prezident farmonlari va qarorlari qabul qilinmoqda. Xususan, Qurolli Kuchlar tizimini zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, harbiy xizmatchilarining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish hamda milliy xavfsizlik konsepsiyasini takomillashtirish bo'yicha keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Mudofaa sohasi bo'yicha qabul qilingan yangi qonun va dasturlar, shuningdek, harbiy sohaga yoshlarni jalb etish orqali Vatanga sadoqat va yurt himoyasiga bo'lgan mas'uliyat hissini oshirish kutilmoqda.

## XULOSA VA TAVSIYALAR

Yangi O'zbekistonning rivojlanish yo'li chuqur va kompleks islohotlar asosida shakllanmoqda. Tinchlik va inson qadriyatları o'zaro uyg'unlashgan holda mamlakat barqaror taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. Hozirgi islohotlar jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirish, davlat boshqaruv tizimini takomillashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratilgan.

## ADABIYOTLAR:

1. Axmedov G., Safarov D. "Tinchlik va barqaror rivojlanish", Toshkent, 2022.
2. Usmonov N. "Inson qadriyatları va jamiyat taraqqiyoti", Samarqand, 2021.
3. Karimov A. "Yoshlar va vatanparvarlik tarbiyasi", Toshkent, 2020.
4. Mamatov B. "Milliy qadriyatlar va ijtimoiy integratsiya", Buxoro, 2019.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmon va Qarorlari, rasmiy hujjatlar to'plami.
6. "Yangi O'zbekiston strategiyasi" - Hukumat hisobotlari, 2023.